ISSN: 2181-3035

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

TALQIN VA TADQIQOTLAR TALQIN VA TADQIQOTLAR TALQIN VA TADQIQOTLAR TALQIN VA TADQIQOTLAR

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz
+99891-152-93-14
talqin@bk.ru

№21
15.04.2023

30.	UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING AYRIM KONTSEPTUAL MASALALARI Djumayeva Guzal Axtamovna	177
31.	УЛЬТРАЗВУКОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ СПЛЕНОМЕГАЛИИ ПалвановаУмида Бахрамовна Якубова Азада Батировна Юсупова Шахло Бахромбек кизи	182
32.	ОЦЕНКА НАГРУЖЕННОСТИ КУЗОВА АВТОМОТРИСЫ ПРОИЗВОДСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Рахимов Рустам Вячеславович Хайдаров Ойбек Улуғбекович Султоналиев Достонжон Дилшод угли	188
33.	ИМОМ ИСМОИЛ АЛ-БУҲОРИЙ ҲАДИСЛАРИДА ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ Рашидова Мухлиса Абдулхай қизи	197
34.	РАСХОЖДЕНИЯ В ДАННЫХ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИТАНА DISCREPANCIES IN FOREIGN TRADE DATA OF UZBEKISTAN Муминов Жахонгир Muminov Jakhongir	202
35.	AHMAD YASSAVIY IJODI ADABIYOTSHUNOSLAR TALQINIDA Nazarova Gulrux Shokirovna	211
36.	«TUGUMI» ASARIDA QO‘LLANGAN XURSANDCHILIKNI IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI Haydarova Umida Sotvoldiyeva Husnida	217
37.	THE RELATION OF THE LEGAL WORLD WITH LANGUAGE Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi	222
38.	BA’ZI RATSIONAL FUNKSIYALARNI INTEGRALLASHDA OSTRAGRADSKIY USULIDAN FOYDALANISH Po‘latov Baxtiyor Sobirovich Ibrohimov Javohir Bahrom o‘g‘li Mamarashidov Sharofjon, Toyloqova Nigora, Avalboyeva Zilola Sharipova	228
39.	YO‘L MUHANDISLIGI INSHOOTLARIDA MONITORING TIZIMLARINI QO‘LLASH Ganiyev Inomjon Gulomovich	233
40.	AVTOMOBIL YO’LLARI QOPLAMASI MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR Habibullayev Shahboz Ali o’g’li Salimova Barno Djamalovna	240
41.	JAMIYAT QONUNLARI VA UNING TURLI IJTIMOIY-TARIXIY DAVRLARDA NAMOYON BO’LISHI Kimsanboyeva Zuhra Saminjon qizi	244
42.	FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR, ULARNING TASNIFI VA TILLARDAGI ROLI Sadikova Saodat Minovarovna	248
43.	MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN YARIM O’QDA BOSHLANG’ICH MASALA Xolmanova Klara Yangiboy qizi Amankulova Istamgul Toshtemir qizi, Baratova Sevinch Doniyor qizi Xakimov Behzodbek Ikrom o’g’li, Tilolov Shahzod Akbar o’g’li	259
44.	UNDALMALARNING O’RNI VA OHANGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR Xatamova Munisa Mamadulla qizi	266

UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING AYRIM KONTSEPTUAL MASALALARI

Djumayeva Guzal Axtamovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada har bir ishlab chiqarunchi korxona borki ularning xo'jalik faoliyatida uzoq muddatli aktivlar muhim ahamiyat kasb etishi, uzoq muddatli aktivlarning ta'rifi va hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, ularni tan olish va baholanishini hisobotlarda aniq aks ettirilishi hamda bu borada milliy hisob tizimini xalqaro talab darajasiga moslashtirish lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: korxona, uzoq muddatli aktivlar, nomoddiy aktivlar, mahsulot ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi, aylanma mablag'lar, binolar, inshootlar, uskunalar.

Annotation: the article highlights the importance of long-term assets in the economic activities of each productive enterprise, the need to adapt the definition and accounting of long-term assets to the requirements of international standards, accurately reflect their recognition and assessment in reports, and adapt the national accounting system in this regard to the level of international demand.

Keywords: enterprise, long-term assets, intangible assets, product production, accounting, working capital, buildings, structures, equipment.

1. Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 24 avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga buxgalteriya hisobi ob'yekti bo'lgan aktivlar, xususan uzoq muddatli aktivlar tushunchasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishni, ular hisobini xalqaro hisob amaliyotidan kelib chiqib takomillashtirishni taqazo etmoqda. Shu bois bugungi kunda eng muhim masalalardan biri bu MHXS(moliyaviy hisobning xalqaro standartlari)larini o'rganish va uni joriy etish hisoblanadi. Bizning oldimizga xalqaro standartlarni o'rganish, milliy hisob tizimi bilan integrasiyalash masalasi, ta'lim sohasiga to'liq kiritish, xo'jalik yurituvchi tashkilotlarda MHXS talablari asosida hisob siyosatini ishlab chiqish, moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro tamoyillarga asosan tayyorlash, shuningdek buxgalteriya hisobi ob'yektlari(uzoq muddatli, joriy aktivlar, majburiyatlar) hisobining konseptual asosinini takomillashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan, shu jumladan uzoq muddatli aktivlardan oqilona

foydalanish, hisobga olish va nazorat qilishning roli ortib bormoqda. Uzoq muddatli aktivlar-bu korxonaga joriy aktivlarning bir necha marta aylanishini amalga oshirish orqali biznes yuritishga imkon beradigan vositalar hisoblanadi. Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqalar), nomoddiy aktivlar (dasturiy ta'minot, ro'yxatdan o'tgan savdo belgilari, ixtirolardan foydalanish huquqlari va boshqalar), uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar va boshqalar kiradi.Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni rivojlantirish, korxona faoliyatini kengaytirish uzoq muddatli aktivlarga sarmoya kiritishni talab qiladi.

Shuning uchun ham asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar davriy modernizatsiya va almashtirishlarga muhtoj. Iqtisodiy mashhur ibora mavjud, ya’ni biz cheklangan resurslar dunyosida yashaymiz, shuni hisobga olgan holda kompaniya investitsiyalarning mumkin bo'lgan yo'nalishlari o'rtasida qiyin tanlovni amalga oshirishi kerak.

Shunday ekan, korxonaning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlaridan foydalanish samaradorligini hisobga olish va tahlil qilish va ularni moliyaviy hisobning xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilishi lozim.

2. Adabiyotlarni ko'rib chiqish. Hozirgi vaqtda uzoq muddatli moddiy aktivlarni hisobga olish masalalari bilan bog'liq ko'plab dolzarb muammolarni hal qilish bilan B. Needles, X. Anderson, A. D. Sheremet, Y. V. Sokolov, V. Y. Sokolov, M. M. Tulaxodjayeva, K. B. Urazov, S. N. Tashnazarov va boshqalar shug'ullangan.

Adabiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda buxgalteriya hisobi fani jahon iqtisodiy tafakkuri, xalqaro buxgalteriya tizimlari bilan integratsiya yo'lida ishonchli rivojlanmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti rivojlanishining yangi sharoitlarida uzoq muddatli moddiy aktivlarni hisobga olish metodologiyasiga tizimli, kontseptual yondashuvni o'z ichiga olgan ishlar mavjud emas.

Buxgalteriya hisobini takomillashtirish muammolari bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari, Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi bo'yicha asosiy qoidalarning uslubiy hujjatlari va materiallari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), Amerikaning "buxgalteriya hisobi va hisobotining umume'tirof etilgan tamoyillari" (GAAP), milliy moliyaviy hisobot standartlari.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, ma'lumotlarni guruhlash usullari ishlatilgan.

4. Tahlil va natijalar. "Aktivlar" tushunchasining zamonaviy talqini, iqtisodiy foydadan tashqari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bunday imtiyozlarni nazorat qilish imkoniyatlarini ham ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv, shubhasiz, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning potentsial daromad yoki kelajakdagi iqtisodiy foydadan foydalanish

qobiliyatini baholashda yanada ishonchli qiladi. Aktivlar tashkilotning kelajakdagi iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo'lgan, tashkilotga tegishli yoki to'liq nazorat qilinadigan, operatsiyalar va o'tgan davrlarning boshqa hodisalari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy resurslar to'plamidir. Binobarin, aktivlarning har bir elementi ularning ta'riflariga javob berishi va bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob beradigan kompaniyalar (korxonalar) uchun iqtisodiy foyda keltirishi kerak.

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish kontseptsiyasini ishlab chiqish ularning iqtisodiy mohiyatini buxgalteriya ob'yekti sifatida o'rganishga asoslangan. Shuni ta'kidlash kerakki, buxgalteriya hisobida uzoq muddatli aktivlarni aniqlash va tan olish tashkilot aktivlarining mohiyatini keng ma'noda o'rganish kerakligini talab etadi. O'tgan yillar va hozirgi davrdagi ichki buxgalteriya hisobida aktivlar tashkilotga tegishli bo'lgan iqtisodiy vositalar (yoki mulk) to'plami sifatida talqin etiladi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi ob’ekti sifatidagi kontseptsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim. Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma’nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog’liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar ob’yekt sifatida korxonaga tegishli xo’jalik mablag’lari deb tan olingan va e’tirof etilgan. Ammo bu e’tirof asosan asosiy kapitalga talluqli bo’lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida davrda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa ob’ektlari ham paydo bo’lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo’yilmalar, uzoq muddatli debitor qarz va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham korxona faoliyatida uzoq muddat ishtirok etadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo’lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi. Uzoq muddatli moliyaviy qo’yilmalar va investitsion mulk sifatida e’tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo’nalishi bo’lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko’rib chiqishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish davlatlarida, shu jumladan, respublikamiz buxgalteriya hisobi metodologiyasida qo’llanib kelinayotgan uzoq muddatli aktivlarni baholash mezonlari va tamoyillari tushunchalaridagi noaniqliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Bozor munosabatlari rivojlanishi jarayonida turli yangi hisob ob’ektlari hisoblangan royalti, gudvill, yer uchastkasiga bo’lgan mulkiy huquq, uzoq muddatli debitorlik qarzlari, kechiktirilgan xarajatlar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, lizing munosabatlari uzoq muddatli aktivlarni xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy hisobotlarida aks ettirish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga javob bermayapti. Bu esa, buxgalteriya hisobi tizimida uzoq muddatli

aktivlarning buxgalteriya hisobini nazariy, huquqiy - tashkiliy va uslubiy muammolari yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tizimi davrida shakllanganligi va davlatning mulkiy hukmronligi tufayli uning saqlanib qolayotgan ayrim elementlarini metodologik jihatdan qayta ko’rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bozor sharoitida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan aktivlarni iqtisodiy naf keltiruvchi resurs sifatida e’tirof etish, zarur bo’lgan holda, ular tomonidan aktivlarni sotib olishda yoki shakllantirishda iqtisodiy nafni o’rganish va uning ob’ektivligini baholash asosiy maqsad sifatida qo’yilmagan. Buning oqibatida aktivlardan foydalanish samaradorligi pasayib ketishi kuzatilmoqda.

5. Xulosa. Bizning fikrimizcha, aktivlar tashkilotning kelajakdagi iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo'lgan, tashkilotga tegishli yoki to'liq nazorat qilinadigan, operatsiyalar va o'tgan davrlarning boshqa hodisalari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy resurslar to'plami hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan uzoq muddatli aktivlar: birinchidan, aktivlarning har bir elementi ularning ta'riflariga javob berishi lozim; ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob beradigan kompaniyalar (korxonalar) uchun iqtisodiy foyda keltirishi kerak; uchinchidan, buxgalteriya hisobining ob’yekti sifatida bozor iqtisodiyotining zamonaviy shartlariga muvofiqlashtirish hamda buxgalteriya hisobini xalqaro darajadagi me’yorlar bilan uyg’unlashtirilishi kerak bo’ladi.

Demak, uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining nazariy va metodologik jihatdan yetarli darajada tadqiq qilinmaganligidan dalolat beradi hamda o’rganilayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O’RQ-404-son Qonuni

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori

3. 5-son BHMS “Asosiy vositalar” 2003-yil 9-oktabr 114-son

4. Xalqaro moliyaviy hisobot standarti (IAS) 16 "Asosiy vositalar"

5. Шодмонов Ш. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. Тошкент: Молия, 2002. - 37 б

6. Исманов И.Н. Узоқ муддатли активларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш масалалари: иқтисод фан. док... дисс. автореф. – Фарғона, 2009.